




**NAMANGAN VILOYAT  
XALQ TA'LIMI BOSHQARMASI**

**TO'RAQO'RG'ON TUMAN XALQ TA'LIMI  
MUASSASALARI FAOLIYATINI METODIK  
TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH BO'LIMIGA  
QARASHLI 11-UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABI  
BOSHLANGICH SINIF O'QITUVCHISI**

**HASANOVA NAFISANING**

2-sinflar uchun o'qish fanidan  
«Dars muqaddas» tavsiyasiga binoan  
«O'rgat-o'rgan» tadbiri asosida tayyorlagan  
bir soatlik

# DARS ISHLANMASI



To'raqo'rg'on

Ushbu dars ishlanma boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun 2-sinfda o'qish fanidan **“Barglar nega sarg'ayadi?”** mavzusini o'tish bo'yicha metodik tavsiya sifatida foydalanishga mo'ljallangan.

### **Mualliflar:**

- M. Akbarova - To'raqo'rg'on tuman XTMTFMTTE bo'limi metodisti.
- N.Hasanova - 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

### **Taqrizchi:**

- O.Karimova - 11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

Ushbu dars ishlanma To'raqo'rg'on tuman XTMTFMTTE bo'limiga qarashli 11-umumiy o'rta ta'lim maktabi metodik kengashining 2013-yil \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ sonli qarori bilan tasdiqlandi va foydalanishga tavsiya etildi.

**Mavzu: “Barglar nega sarg’ayadi?”.**

**Darsning ta'limiy maqsadi:**

Ertak mazmuni bilan tanishish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi:**

Tabiatni sevish va asrashni o’rganish.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi:**

O’quvchilarni ifodali, to’g’ri, tez va ongli o’qishga o’rgatish.

**Darsning turi:** Aralash

**Darsda foydalaniladigan usullar:**

Og’zaki hikoyalash, mustaqil ishlash, savol-javob, ertakni sahnalashtirish, rollar ijro etish, rasm chizish, test yechish.

**Darsga kerakli jihozlar:**

Darslik, tarqatma savollar, ertak qahramonlarining rasmlari, fasllar ko’rgazmasi, rangli qalam va rasm daftar, test savollari.

**Darsning boshqa fanlar bilan bog’liqligi:**

Tabiat, tasviriy san’at, mehnat, matematika fanlari.

**Darsning borishi:**

**Tashkiliy qism:**


A) salomlashish;

B) davomatni aniqlash;

C) sana, oy, yil, fasl va bayramlar haqida suhbat.


**O'tgan mavzuni mustahkamlash uchun tarqatma savollar:**

- A) navbat bilan javob berish;
- B) kamchiliklarini to'ldirish;
- C) umumlashtirish;



**Yangi mavzu bayoni: Barglar nega sarg'ayadi?**

Tipratikan inidan chiqsa, boshiga bitta sariq barg tushdi. Tipratikan hayratlandi. Daraxtlarga qaradi, bitta-ikkita sariq barg paydo bo'libdi. Qiziq kecha kuni ham o'rmonda bitta ham sariq barg yo'q edi? Barglar nega sarg'aydi ekan-a? Bu savolga javob topish kerak. Tipratikan bargni ignasiga kirgizib yo'lga tushdi. Yo'lda unga olmaxon uchradi. Olmaxon qish uchun iniga yong'oq tashirdi.



- Olmaxon bilmaysanmi barglar nega sarg'ayadi? – so'radi tipratikon.
- Ularni sovuq urgan – javob berdi olmaxon.
- Hecham sovuq urganga o'xshamaydi-ku?
- Men ham sovuqdan shamollasam sarg'ayib ketaman – dedi olmaxon.

Tipratikan yo'lida davom etdi, endi unga tulki duch keldi.

- Bilmaysanmi Tulkivoy barglar nega sarg'ayadi?
- Meni yaxshi ov qilishim uchun kuzda barglar sarg'ayadi – javob berdi tulki.
- Seni ov qilishing uchun barglar sariq rangga kiradi deb o'ylamayman – deya yo'lida davom etdi tipratikan. U tulkining javobidan qoniqmadi.
- Hoy tipratikan, biz tamonlarda nima qilib yuribsang?

Tipratikan boshini ko'tarib yuqoriga qaradi. Daraxt shoxida ukki o'tirgan edi.

- Ukkivoy bilasanmi barglar nega sarg'ayadi – so'radi tipratikan.
- Barg ham o'rmonga o'xshaydi, unda juda ko'p pigmentlar yashaydi. Yozda yashil fermentlar inidan chiqadi, kuzda esa sariq fermentlar inidan chiqadi.

Shuning uchun barg sarg'ayib ko'rinadi – ukki o'z javobining to'g'riligidan mag'rurlanib kerishib qo'ydi.

Tipratikan ukkiga rahmat aytib ortga qaytdi. “Ukkining javobi to'g'riligiga shubham yo'q, ammo kuzda quyosh kam ko'rganligi bois, quyoshni sog'inib barglar sariq tusga kiradi. Mana shu javob eng to'g'ri javob”. Tipratikan o'z savoliga o'zi javob topganday mamnun jilmaydi.

### **Dam olish daqiqasi:**

Barg, tipratikan, tulki, ukki, olmaxon rasmlaridan birini chizish.

Mazmunini so'zlash, rollarga bo'lib o'qish.

### **Yangi mavzuni mustahkamlash uchun test savollari:**

1. Qaysi faslda barg lar sariq rangga kiradi?

A) yoz

B) kuz

C) qish

2. Ertakning bosh qahramoni nima?

A) tulki

B) tipratikan

C) olmaxon

3. “Barglar sovuqdan sarg’ayadi” – bu qaysi qahramonning javobi?

- A) tulki
- B) tipratikan
- C) olmaxon

4. Qaysi javobda tulkining so’zlari berilgan?

- A) Bargda pigmentlar yashaydi.
- B) Barglar quyoshni sog’inib, sariq tusga kiradi.
- C) Meni oson ov qilishim uchun barglar sarg’ayadi.

5. Qaysi qatorda tipratikanning o’z fikrlari berilgan?

- A) Bargda pigmentlar yashaydi.
- B) Barglar quyoshni sog’inib, sariq tusga kiradi.
- C) Meni oson ov qilishim uchun barglar sarg’ayadi.

**Natijalarni tekshirish.**

**O’quvchilarni baholash.**

**Faollarni rag’batlantirish.**

**Uyga vazifa:**

- A) ertakni o’qish.
- B) mazmunini o’zlashtirish
- C) barg rasmini chizish.



## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. 2-sinf “O’qish kitobi” darsligi.
2. “Boshlang’ich ta’lim” jurnali.